

O`QUVCHILARGA ONA TILI FANINING O`QITISHNING MAZMUM MOHIYATI

Sultanova Ra'no Abdurasulovna

Olmalik shaxar 23-umumiy urta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot ukituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Insonning tafakkuri, ilmiy salohiyati, qobiliyati, ijtimoiy muhim sifat sanaladi. Kelajakda Vatanimiz obod va ozod, erkin farovon bo'lishi, iqtisodiy jixatdan baquvvat bo'lish ko'p jixatdan bugungi yoshlarining iqtidoriga, istedodiga chuqur tafakkurli, bilimdon va ma'naviyatli bo'lishiga bog'liq. Yosh avlodning barkamol bo'lib yetishida ona tili ta'limining ahamiyati katta bo'lib, ona tili nafaqat bir hil fanlarni o'zlashtirishda, balki umuman, jamiyatda insoning mavjudligiga, ularning o'zaro aloqaga kiritishda muloqatning shakllanishida ham ahamiyatliligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *inson, tafakkur, shakllantirish, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, jarayon, vosita, maktab.*

O'zbekistonning mustaqillikka yuz tutishi mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy xayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish kerakligini taqazo etadi. Mustaqil O'zbekistonda milliy mafkuraning yaratishda ta'lim-tarbiyaning bo'limi maktablar, litsey va kollejlarning ahamiyati kattadir. Maktab va litseylarda ta'lim tarbiya jarayonini shakllantirish, samarador usulari orqali o'quvchilarga singdirish O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunning asosiy yo'nalishidir. Unda o'qitishning ilg'or shakllari va yangi texnologiyalarini ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish" asosiy masalalardan biri ekani ta'kidlanadi. Fuqarolarimiz ozod va obod Vatanda erkin va farovon yashashlari uchun tafakkuri takomil bo'lmog'i shart.

Bunday maqsadni, asosan, ta'lim jarayonida amalga oshirish ayni muddao hisoblanadi.

Ta'lim berish yangi, samarador, takomilashgan usul va texnologiyalarni yaratish, uni tajribada sinash va shu jarayonida yanada mukammallashgan yo'nalishini xosil qilishdan iborat bo'lib mukammal dastur, takomilashgan darslik, zamonaviy usul va texnologiyalar ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishga tasir etadi.

Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shakilda yo'lga qo'yish malakasi, eng avvalo, ona tili ta'limga taluqlidir. Chunki har qanday fanning mohiyati ona tili orqali iroda qilinadi va ona tili orqali idrok etiladi. Keyingi yillarda til o'qitishda metodik jixatdan o'quvchilarni faollashtirish masalasi nazariy jixatdan jonlangan bo'lsa-da, uni amaliy qo'llash juda sekin bormoqda va bu masalani amalga oshirishga bag'ishlangan o'zbek tilidagi metodik adabiyotlar yetarlicha emas, buning uchun xar bir o'quvchi shu soxada yetarli darajada maetodik adabiyotlar bilan taminlangan bo'lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan bo'lib, o'qituvchining o'zi shu jixatdan yetarli darajada bilimga ega bo'lmog'i tildagi har bir xodisalarni, qonuniyatlarni tushuntirishda falsafiy jixatdan tayorlangan bo'lmog'i kerak.

Bugungi kunda ona tili darslari oldiga qo`ygan vazifalarining asosiysi yoshlarda o`z fikrlarini mantiqiy izchil, barcha imkoniyatlari gavalangan holda ta`sirli ravishda yetkazib berishdan iboratdir.

Til o`qitishning metodik masalalariga aniqlik kiritish, bu sohada umumta`lim, nazaryani amaliy bilan, shuningdek barcha boshqa fanlar bilan bog`lab o`qitish zamonaviy pedagogik tehnologiyalarini ta`limga joriy etish maktablarda ta`lim usularini ishlab chiqish hozirgi metodikamiz, pedagogikamizning dolzarb vazifalaridandir.

Ma`lumki, DTS talablari darajasida o`quvchilarga bilim berish, ko`nikma va malaka hosil qilish ko`p jihatdan dars mashg`ulotlarining samarali tashkil etilishida ko`rinadi. Dars samaradorligi esa o`qituv-chining unga tay-yorgarlik ko`rishiga bog`liq. Puxta tayyorgarlikka asoslangan dars qiziqarli o`tadi va ko`zlangan maqsadga erishi-ladi. O`qituv-chi darsga tay-yorlanar ekan, avvalo, darsning maqsadini puxta o`ylab ko`rmog`i lozim. Mash-g`ulotning ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari aniq, ammo ularni o`zaro uyg`un holda qanday qilib amalga oshirish yo`llari belgilanmasa, samaradorlikka erishib bo`lmaydi.

Darsning metodini to`g`ri tanlash ham dars sama-radorligini ta`minlovchi omil-lardan hisoblanadi. Dars metodini tanlashda o`qituvchi o`quvchilarning real o`quv imkoniyatini, o`rganiladigan mavzuning talabini ham hisobga oladi. Ta`limning bu jihati o`qituvchidan puxta nazariy bilim va pedagogik mahorat talab etadi. Jumladan, o`qituvchi dars-ni turli metodlardan foydalangan holda tashkil etar ekan, ayniqsa, yangi bilim beruvchi darslarda ko`proq muammoli o`qitish metodiga asoslanishi, qayta xotir-lash xarakteridagi topshi-riq-lar-dan ham, ijodiy xarakterdagi topshi-riqlardan ham foydalanishi lozim.

Shuningdek, darsga tay-yorgarlik ko`rishda o`qituvchi darslikdagi qaysi mashqlardan foydalanishini, mashq shart-lariga qanday qo`shimchalar yoki o`zgar-tirishlar kiritishi mum-kinligini rejalashtirishi kerak.

Ta`lim vositalari ham mash-g`ulotlar samaradorligini ta`minlashga xizmat qiladi. Darslik ham ta`limning muhim vositasi hisoblanadi. Xususan, maktab ona tili ta`limining asosiy maqsadi o`quvchilarni ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og`zaki va yozma shaklda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nik-malarini shakllantirish va rivojlantirish ekan, bu maqsad dars-liklarda o`z ifodasini topgan.

Darsni darslikka asoslanib tashkil etish degani darslikda berilgan o`quv topshiriq-laridagina foydalanishni anglatmaydi, albatta. O`qi-tuvchi darslikdan ijodiy foydalanishi, ya`ni zarurat tug`ilganda mashq shartiga qo`shimcha shartlar kiritishi, berilgan shartni yangi shart bilan almashtirishi, lozim topsa, darslikdagi mashq o`rnida o`zi tuzgan mashqdan foydalanishi mumkin.

Ta`lim jarayonida o`quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o`rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o`qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu o`rinda ona tili va o`qish savodxonligi ta`limiga o`quv fani emas, balki, butun ta`lim tizimini uyushtiruvchi ta`lim jarayoni sifatida qaraladi. Shu bois ham,

darsni tashkil qilishda unga integratsion va innovatsion yondashish davr talabi bo'lib qolmoqda. Zero, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyaning mazmunini, mohiyatini, ularni darsga qanday tadbiq etish usullarini puxta bilmog'i darkor. Matn mazmuni va g'oyasini aniqlash, narsa nomlarini ajrata olish, yo'riqnoma va ko'rsatmalarni tushunish, so'z oxirida kelib, og'zaki nutqda tushib qoladigan undoshlar imlosi bilan ishlash; Og'zaki nutq 1: suhbat jarayonida ikkinchi sinf darajasiga mos mavzular yuzasidan adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ravon so'zlay oladi; Tinglab tushunish 4: sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglagach uning asosiy mazmunini, voqealar ketma-ketligi va g'oyasini aytib bera oladi;_ O'qib tushunish 3: sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarni ravon hamda ifodali o'qiy oladi; Yozma nutq 1: asosiy husnixat qoidalariga amal qilgan holda yoza oladi; Lingvistik kompetensiya 11: asosiy husnixat, imlo, bo'g'in ko'chirish hamda tinish belgilari qoidalariga amal qilgan holda ikkinchi sinf darajasiga mos, o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gaplar hamda kichik matnlar tuzib yoza oladi.

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviysiyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini Shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasaliş usuliari haqidagi (so'z yasalişiga doir); so'zlarning leksiksemantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalişiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'iadi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikraalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavur etish), umumlashtirish, guaihlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga tmkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, birbiridan ajratilmagan holda o'quv

tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar maktab dasturlari va davlat ta'lim standartida qayd etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Holmurodov. Ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish
2. Sobirova. Ona tili darslarida kompyuterdan foydalanishning ayrim usullari. «Til
3. obirova. Til ta'limida axborot kommunikasion texnologiyadan foydalanish. XXI asrda o'zbek tili ta'limi masalalari. «O'zbek tili» doimiy anjumani 9-yig'ini materiallari. Toshkent, O'zb. Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil, 125-126-betla